

Ashurov Abror Uralovich,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: ilm_hikmati@mail.ru



JAMOATCHILIK EKOLOGIK NAZORATI – MAHALLA TIZIMIDA

Annotatsiya. Ekologik nazorat nazoratning alohida va mustaqil ko‘rinishi sifatida nazorat qiluvchi subyekt va obyekt o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yig‘indisi hisoblanib, ma’lumotlarni to‘plash, baholash va tegishli qarorlar qabul qilish kabi vositalarni o‘z ichiga oladi. Jamoatchilik ekologik nazorati, asosan, boshqaruvning kichik bo‘g‘ini bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarish organlarida (mahallalarda) olib borilishi boshqaruvning nomarkazlashgan prototipini namoyon etadi hamda mahalliy darajada qarorlar qabul qilish uchun zamin yaratadi. Boshqacha aytganda, mahalla – bu kichik boshqaruv organi sifatida barcha yo‘nalishlarda o‘zining eng yaxshi xususiyatlarini namoyon qiluvchi tuzilmadir.

Аннотация. Экологический контроль рассматривается как отдельная и независимая форма контроля, сумма взаимодействий между субъектом контроля и объектом, и включает в себя такие инструменты, как сбор данных, их оценка и принятие соответствующих решений. Тот факт, что общественный экологический контроль осуществляется преимущественно в органах самоуправления (махаллях), которые являются небольшим звеном управления, свидетельствует о децентрализованном прототипе управления и создает основу для принятия решений на местном уровне. Другими словами, махалля – это структура, проявляющая свои лучшие качества во всех направлениях в качестве небольшого органа управления.

Annotation. Environmental control is considered as a separate and independent form of control, the sum of interactions between the subject of control and the object, and includes tools such as data collection, their assessment and making appropriate decisions. The fact that public environmental control is carried out mainly in self-government bodies (makhallas), which are a small part of management, indicates a decentralized management prototype and creates the basis for decision-making at the local level. In other words, makhalla is a structure that shows its best qualities in all directions as a small governing body.

Tayanch soʻzlar: mahalliy boshqaruv, mahalla, atrof-muhit, ekologiya, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik inspektori, jamoat tashkilotlari, jamiyat, ekologik nazorat, dunyoqarash.

Ключевые слова: местное самоуправление, махалля, окружающая среда, экология, общественный контроль, общественный инспектор, общественные организации, общество, экологический контроль, мировоззрение.

Keywords: local self-government, makhalla, environment, ecology, public control, public inspector, public organizations, society, environmental control, worldview.

Kirish. Jamoatchilik ekologik nazorati tizimida mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlari alohida oʻrinni egallaydi. Jamiyat rivoji bevosita mahalliy organlarning faol harakatiga chambarchas bogʻliq boʻlib, umumdavlat taraqqiyotini belgilab beradi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganidek, “Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak”¹.

Maqsad va uni asoslash. Jamoatchilik ekologik nazorati bevosita mahalliy tashkilotlar eʼtibor qaratishi natijasida rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, fuqarolar masʼuliyatini oshirish, ularni atrof-muhit muhofazasiga keng jalb etish aynan fuqarolar manfaatlariga mos jihat sifatida qaralishi, maqsad sifatida belgilanishi muhimdir.

Ekologiya sohasi olimi A.Kachuraning qayd etishicha, “Mahalliy organlar jamoat munosabatlarining alohida elementi boʻlib, u aholiga imkon qadar yaqin, har bir fuqaroning manfaatlarini amalga oshishiga koʻmaklashadi. Mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish darajasi – aholi manfaatlarini, hududiy xususiyatlarni va mahalliy anʼanalarni hisobga olgan holda mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan muammolarni bevosita yoki mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlari orqali hal qilish boʻyicha aholining oʻz masʼuliyati ostida amalga oshiriladigan mustaqil faoliyatidir”².

Mamlakatimizda qadimdan mavjud boʻlib, oʻz anʼana va qadriyatlariga ega boʻlgan mahalla instituti bu borada jamiyatning asosiy tayanchi sifatida eʼtibor qozongan. Mavjud resurslardan oqilona foydalanish, tabiatga zarar yetkazmaslik kabi masalalar bir necha asrlar mobaynida mahalla instituti tomonidan turli koʻrinishlarda targʻib qilib kelingani tarixiy manbalardan maʼlum. Oʻz navbatida, mahallalardagi atrof-muhit muhofazasiga oid qarashlar oilaviy munosabatlarga koʻchib,

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasi. Xalq soʻzi gazetasi. 2022-yil 20-dekabr.

² Качура Алина Алексеевна. Новая концепция общественного экологического контроля на примере Береговой линии Приморского района Санкт-Петербурга. – Санкт-Петербург. 2018. – С-16.

har bir oilada ekologik qadriyatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Pedagogika sohasi tadqiqotchisi R. Sultonovning qayd etishicha, ekologik an'ana va qadriyatlar mahalla va oilalarda ta'lim-tarbiyaning muhim yo'nalishi o'laroq qaralgan. "Atrof-muhitni, uyni, mahallani, ko'cha-ko'yni, shahar, qishloq, ovullarni, bozorlarni, ariqlarni, hovuzlarni toza, saranjom-sarishta tutganlar. Boshqacha aytganda, ekologik ma'naviyatga, ekologik qoida va mezonlarga to'la amal qilganlar. Daraxtzor, bog'-rog'lar yaratilganligi haqida tariximizdan ko'plab ma'lumotlarni keltirish mumkin. Bog' yaratish san'atiga xalqimiz azaldan ega bo'lgan. Oilada farzand tug'ilsa, unga atab daraxt ekilgan. Tirik jonivorlarga ozor yetkazilmagan. Tabiat bilan uyg'unlikda hayot kechirishgan, yashash muhitiga, tabiatga nisbatan loqaydlik, befarqlik qoralangan va pirovard natijada tabiat muvozanatini saqlagan"³.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Darhaqiqat, mahalla institutining atrof-muhitga daxldor munosabatlari ayni davrga kelib ham o'z ta'sir doirasi, targ'ibot mexanizmlariga ega. E'tiborli tomoni shundaki, bugun jahonda tan olingan atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq qarashlar kichik boshqaruv tizimimizda o'zining to'la ifodasini topgan. Eng asosiysi, ekologik qadriyatlar tizimi va undagi umumiy tendensiyalar xalqimizning xohish irodasidan kelib chiqqan holda milliy qonunchilikda ham mustahkamlab qo'yilgan. Fikrimizning dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishga doir namunaviy Nizom"ning 2-bo'lim 12-bandida keltirilgan quyidagi norma misol bo'la oladi. Unga ko'ra, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik ekologik nazorat sohasidagi faoliyati fuqarolarning tegishli o'zini o'zi boshqarish hududida (shaharchalar, qishloqlar, ovullar hamda shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar mahallalarida) amalga oshiriladi"⁴.

O'z navbatida, mahalla institutida bugungi kunda ekologik faoliyat bilan ko'plab jamoatchilik vakillari, davlat organlari shug'ullansa-da, aholining bundan xabardorlik darajasi yuqori emasligini qayd etish lozim. Masalan, o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning deyarli yarmi (45 foizi) o'z mahallasida ekologik nazoratni amalga oshirish, atrof-muhit, tabiatni asrash kabi vazifalar bilan aynan kim shug'ullanishi haqida ma'lumotga ega emasligini ma'lum qilgan. Qolgan 40 foizga yaqin ishtirokchilar esa mazkur vazifani, asosan,

"Atrof-muhitni, uyni, mahallani, ko'cha-ko'yni, shahar, qishloq, ovullarni, bozorlarni, ariqlarni, hovuzlarni toza, saranjom-sarishta tutganlar. Boshqacha aytganda, ekologik ma'naviyatga, ekologik qoida va mezonlarga to'la amal qilganlar. Daraxtzor, bog'-rog'lar yaratilganligi haqida tariximizdan ko'plab ma'lumotlarni keltirish mumkin. Bog' yaratish san'atiga xalqimiz azaldan ega bo'lgan.


³ Sultonov R. Oilada ekologik tarbiya saboqlari. <http://ekomaktab.uz/index.php/uz/press-reis2/last-news/138-2019-06-06-15-31-57>.

⁴ "Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi namunaviy Nizom. <https://lex.uz/acts/2784434>.

***Jamoatchilik
ekologik nazoratini
olib borishni o'z
zimmasiga olgan
tegishli nodavlat
va boshqa jamoat
tashkilotlarining
faoliyati ham
rivojlanib
bormoqda.***

mahallaning ko'zga ko'ringan vakillari (ko'p holatda yoshi kattalar) amalga oshirayotganini ta'kidlashgan. Ayrim holatlarda mahalla faollari (14%), mahalla raisi (11%), ichki ishlar xodimlari va hokimiyat vakillari (2%) ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida samarali faoliyat olib borayotgani qayd etildi (*1-rasm*). Mazkur holatda mahallalarda ekologik nazoratni amalga oshirishda aholining xabardorligi bilan bog'liq holatda ma'lum ishlar amalga oshirish lozimligi namoyon bo'ladi.

Jamoatchilik ekologik nazoratini olib borishni o'z zimmasiga olgan tegishli nodavlat va boshqa jamoat tashkilotlarining faoliyati ham rivojlanib bormoqda. Mazkur yo'nalishdagi o'zgarishlar esa tegishli tashkilotlar tomonidan ilmiy va amaliy tadqiqotlar ko'rinishida olib borilmoqda. Jumladan, "Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi" (CAREC) mutaxassislarining e'tirof etishiga ko'ra, O'zbekistonda jamoatchilik ekologik nazoratini olib borishni o'z zimmasiga olgan tashkilotlar soni ortib bormoqda.



1-rasm. Respondentlarning tabiatni asrash va ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kim shug'ullanishi to'g'risidagi fikrlari (foizda)

“Ekologik jamoat tashkilotlari sonining eng yuqori cho'qqisi (129 ta) 2012-yilga to'g'ri keladi. Keyinchalik ularning soni birmuncha kamaydi va hozirda O'zbekiston Ekologik harakati hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 92 ta tashkilot faoliyat yuritmoqda. Ushbu dinamikaning asosiy sababi haqiqiy uzoq muddatli faoliyat rejalarisiz yaratilgan ba'zi jamoat tashkilotlarning tabiiy ravishda tugatilishidir”⁵.

⁵ Саидахмедов С. Обзор деятельности экологических общественных организаций в Узбекистане. Рабочий документ. Региональный экологический центр Центральной Азии. – Ташкент, 2017. – С. 8.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ekologik muammolarni tizimli bartaraf etish aynan jamoat tashkilotlari faolligiga tayanadi. Keltirilishicha, "Mavjud ekologik muammolarni hal etish O'zbekiston Respublikasini yaqin, o'rta va uzoq muddatli istiqbolida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini ekologik faoliyatga keng jalb etish, yoshlarni ekologik tarbiyalashga ixtisoslashgan davlat muassasalari bilan bir qatorda ekologik jamoat tashkilotlari ham beqiyos hissa qo'shadi"⁶.

Jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish mamlakatimiz uchun kelajakka daxldor masala bo'lib, bu aholi salomatligi, yetishib kelayotgan yangi avlodning jismonan sog'lom, ruhan tetik bo'lib shakllanishining kafolatlaridan biridir. Bu esa fuqarolardan ekologik bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirish, mazkur yo'nalishda faoliyat olib borayotgan tashkilotlar atrofida birlashish, ekologik bilim va ko'nikmalarni yanada oshirish va mustahkamlash kabi vazifalarni shartlab qo'yadi. Bu borada mamlakatni ushbu sohadagi qonunchiligining ahamiyati katta. Soha mutaxassisi S.Saidaxmedovning qayd etishicha, qabul qilingan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun alohida ahamiyatga ega bo'lib, ekologiya sohasida xalqaro hujjatlarga qo'shilish, jahon tajribasining eng muhim va mintaqa manfaatlariga mos jihatlarni o'zlashtirish hamda milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish tendensiyalarini jadallashtiradi. Qonunni qabul qilishning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

- atrof-muhitni muhofaza qilish va jamoatchilik ekologik nazoratini ta'minlash tizimida fuqarolik institutlarining roli va o'rnini belgilab berdi;
- qonunning asosiy vazifasi jamoatchilik ekologik nazoratining samarali tizimini yaratishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish tartibi va usullari, ushbu turdagi ekologik nazorat subyektlarining huquq va majburiyatlari qat'iy belgilab qo'yildi;
- ekologik nazoratni olib boruvchi jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, har bir fuqaroning ekologik me'yorlarga rioya qilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda ishtirok etish huquqi mustahkamlandi.

Umuman olganda, jamoatchilik ekologik nazoratni tashkil etish va amalga oshirishning bugungi kundagi o'zni va ahamiyati atrof-muhit holatiga zararli ta'sir ko'rsatish manbalarini muayyan hudud miqyosida aniqlash hamda har bir hududning ekologik xususiyatlaridan kelib chiqib alohida e'tibor qaratish bilan izohlanadi.

Jamoatchilik ekologik nazoratiga qo'yiladigan talablar atrof-muhit to'g'risidagi qonun hujjatlarida, mahalliy o'zini o'zi boshqarish

Jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish mamlakatimiz uchun kelajakka daxldor masala bo'lib, bu aholi salomatligi, yetishib kelayotgan yangi avlodning jismonan sog'lom, ruhan tetik bo'lib shakllanishining kafolatlaridan biridir.

⁶ O'sha manba.

Jamoatchilik ekologik nazoratining eng muhim xususiyatlardan biri – bu muayyan hudud aholisining dunyoqarashi, hududdagi ekologik vaziyat kabi omillar e’tibordan chetda qolib ketmasligi va aksincha, ularni doimiy nazorat qilish imkoniyatining ortishi. Shuningdek, hududda joylashgan turli ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini ham kuzatish, nazorat qilish imkonini beradi.

to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjatlarida va boshqa huquqiy manbalarda ko‘rsatib berilgan. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, jamoatchilik inspektorlari faoliyati ham tegishli hujjatlar asosida yo‘lga qo‘yilgan. “Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy Nizomning 8-bandida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish maqsadida ekologik nazoratning jamoatchilik inspektorlari tizimini shakllantirishi va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishi mumkin”⁷, deb belgilab qo‘yilgan. Nizomning “Ekologik nazoratning jamoatchi inspektori to‘g‘risida”gi 2-ilovasi inspektorning vazifalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlarini tartibga soladi. Inspektor o‘z vakolati doirasida muayyan hududda ekologik nazoratni olib borishi, atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni aniqlash va mustaqil qaror qabul qilishi uning ekologiyaga zarar yetkazilishining oldini olish imkoniyatini oshiradi.


Jamoatchilik ekologik nazoratining eng muhim xususiyatlardan biri – bu muayyan hudud aholisining dunyoqarashi, hududdagi ekologik vaziyat kabi omillar e’tibordan chetda qolib ketmasligi va aksincha, ularni doimiy nazorat qilish imkoniyatining ortishi. Shuningdek, hududda joylashgan turli ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini ham kuzatish, nazorat qilish imkonini beradi. Bu borada fuqarolar, jamoatchilik tashkilotlari, inspektorlar mahalliy organlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari ijobiy xususiyatlarni taqdim etadi. Rossiyalik huquqshunos olim M.Brinchukning qayd etishicha, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, mahalliy hududda joylashgan barcha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari uchun majburiydir. Bu ularni qabul qilgan organlar va mansabdor shaxslar tomonidan bekor qilinishi yoki sud qarori bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari qarorlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”⁸.

Ta’kidlash lozimki, jamoatchilik ekologik nazorati insonning ogoh bo‘lishi va bo‘layotgan vaziyat yuzasidan tegishli organlarga xabar berishi bilan birgalikda vaziyat yuzasidan tartibni buzgan yoki zarar yetkazgan insonga o‘zining fikrini aytish, dashnom berishida ham namoyon bo‘ladi.

⁷ “Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy Nizom // <https://lex.uz/acts/2784434>.

⁸ Бринчук М.М. Экологическое право. Учебник. — Москва:2008. — С.307.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, har uchinchi respondent bunday holatga e'tibor bermasligini (30%), 27 foizi mazkur vaziyatda nima qilishini aniq ayta olmasligini ta'kidladi. Shu bilan birga, ayrim insonlar ekologiyaga zarar yetkazuvchi shaxslarni ko'rganda ularga tanbeh berishi (25%), noto'g'ri ekanligini tushuntirishi (10%) aniqlandi. 12 foiz so'raluvchi esa bevosita tartibni buzgan inson bilan muloqotga kirishishdan ko'ra, mutasaddi tashkilotlarga xabar berishni afzal ko'radi (2-rasm). Olingan natijalar mamlakatimizda ekologik vaziyatni saqlab qolishda shakllanayotgan jamoatchilik nazorati hali u qadar kuchli emasligini namoyon qildi.



2-rasm. Respondentlarning ekologik tartib buzilganda o'zlarini qanday tutishlari bo'yicha savolga munosabati (foizda)

Yakuniy qism. Bizning o'rganishlarimizga ko'ra, jamoatchilik ekologik nazoratini yanada takomillashtirish uchun quyidagi huquqiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish shartlangan:

Birinchidan, har bir hududning ekologik vaziyatidan kelib chiqib, atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish, uni amaldagi qonunchilikka moslashtirish va amaliyotga joriy etish jamoatchilik ekologik nazoratining huquqiy yechimlaridan biridir.

Ikkinchidan, hududda faoliyat yuritadigan sanoat korxonalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishning aniq muddatlarini belgilash, uning mexanizmlarini takomillashtirish va atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga qaratilgan aniq tavsiyalarni berib borish ekologik vaziyat barqarorlashuviga yordam beradi.

Uchinchidan, hududiy ehtiyojdan kelib chiqib, ichimlik suvi, tuproq, havo va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishning ijtimoiy-axloqiy yo'nalishlarini belgilash va unga qat'iy rioya qilishning jamoatchilik nazoratini olib borish atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga yordam beradi.

Har bir hududning ekologik vaziyatidan kelib chiqib, atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish, uni amaldagi qonunchilikka moslashtirish va amaliyotga joriy etish jamoatchilik ekologik nazoratining huquqiy yechimlaridan biridir.

To‘rtinchidan, jamoatchilik nazorati subyektlari zimmasiga targ‘ibot va tashviqot ishlarini yuklash, muayyan mintaqadagi ta‘lim muassasalari, ijtimoiy obyektlarda ekologik barqarorlik kelajakka daxldor strategik masala ekanligini tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot guruhlarini shakllantirish masalaning ijtimoiy yechimi bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, fuqarolar va jamoatchilik ekologik birlashmalari tadbirkorlik va boshqaruv sohasida ekologik vaziyatni yaxshilashga daxldor qarorlarni tayyorlash va qabul qilish bosqichlarida qonun doirasida ekologik talablarning bajarilishini ta‘minlash yoki nazorat qilishda ishtirok etish uchun muayyan imkoniyatlarga ega bo‘lishlari tadbirkorlik subyektlarining mas‘uliyati oshirishini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, demokratik tartibot va an‘analar shakllanib borayotgan O‘zbekiston jamiyatida inson, uning qadri, huquq va manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligini e‘tirof etgan holda, mamlakatning har bir mintaqasida barcha fuqarolarning qulay atrof-muhitda turmush kechirishga bo‘lgan huquqini ro‘yobga chiqarish eng ustuvor masalalardan biridir. Shu sababli mamlakatimizda inson yashashi uchun qulay ekologik muhitni barpo etish bugungi global ekologik inqiroz sharoitida o‘ta muhimdir. Muammoning asosiy yechimlaridan biri esa shubhasiz, jamoatchilik ekologik nazoratini tizimli tashkil qilish, uning ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda mahalla institutining samaradorligini ta‘minlash bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Качура А.А. Новая концепция общественного экологического контроля на примере Береговой линии Приморского района Санкт-Петербурга. – Санкт-Петербург. 2018. – С. 16.
2. Sultonov R. Oilada ekologik tarbiya saboqlari. <http://ekomaktab.uz/index.php/uz/press-relis2/last-news/138-2019-06-06-15-31-57>.
3. Саидахмедов С. Обзор деятельности экологических общественных организаций в Узбекистане. Рабочий документ. – Ташкент: Региональный экологический центр Центральной Азии. 2017. – С. 8.
4. “Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy Nizom. <https://lex.uz/acts/2784434>
5. Бринчук М. М. Экологическое право. – Москва: Учебник, 2008. – С. 307.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2022-yil 20-dekabr.